

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINISHI, MOHIYATI, MAQSADI, INSON VA FUQAROLARNING HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA BURCHLARINING TASNIFI

Rashidov Islombek Xayrullo o‘g‘li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

Xalqaro munosabatlar fakulteti

1-bosqich talabasi

+998933457854

Irashidov526@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10242094>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining vujudga kelish tarixi, fuqarolar uchun ahamiyati va ularga roya etishlari bafurcha bayon etilgan bolib, maqolaning asosiy mavzusi esa yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning qabul qilinishiga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, Prezident, Qonunchilik Palatasi, Senat, Inson Qadri.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgach, tabiiy ravishda davlat mustaqilligi va suverenitetini Konstitutsiya asosida mustahkamlash zarurati yuzaga keldi. O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini tayyorlash g‘oyasi dastlab Islom Karimov tomonidan 1990-yilning mart oyida ilgari surildi. 1990-yil 20-iyun kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II sessiyasida yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelindi. Sessiya O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Komissiya tarkibiga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, davlat, jamoat tashkilotlari va xo‘jaliklarning rahbarlari, olimlar, mutaxassislar kiritildi. Konstitutsiyaviy komissiya O‘zbekiston Respublikasining Konstitut- siyasini yaratish ustida 2,5 yil ishladi. Loyihaning dastlabki varianti 1991-yilning oktabr-noyabrigacha tayyorlab bo‘lindi. U dastlab muqad- dima, olti bo‘lim va 158 moddadan iborat edi. Bu loyiha hali mukammal emasligi, boisi uning ustida yanada jiddiyroq va talabchanlik bilan ishlash zarur edi. 1992-yil bahorida esa loyiha 149 moddadan iborat ikkinchi varianti ishlab chiqildi. 1992-yilning kuz oylarida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun 2-marta matbuotda e‘lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. 1992-yil 8-dekabrda XII chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi bo‘ldi. Unda mamlakatning Asosiy Qonunini qabul qilish masalasi muhokama qilindi. Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o‘zgartirish, qo‘shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kunni umumxalq bayrami deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi qonunlarni qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. U «Mustaqillik Deklaratsiyasi», «O‘zbekiston Res- publikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida»gi qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g‘oyalarni o‘zida to‘la mujassamlashtirdi.(1) 30.04.2023yili Yurtimizda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini qabul qilish bo‘yicha referendum bolib o‘tdi barcha takliflar qabul qilindi, jamlandi va tahlil qilindi qisqa

muddatda fuqarolardan 60mingdan ziyod taklif va g'oyalar kelib tushdi va Konstitutsiyamizning yangi tahriri ommaga tarannum etildi va bu aholi tarafidan maqullandi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyada 6 bo'lim 27 bob va 155 moddadan iborat, ushbu Yangi tahrirdagi Konstitutsiya matni oldingi bo'lgan konstitutsiya matniga nisbatan 65 foizga yangilandi. Misol uchun 1-moddaga toxtalsak eski nashrdagi konstitutsiyada O'zbekiston – suveren demokratik Respublika. Davlatning “ O'zbekiston Respublikasi” va “ O'zbekiston degan nomlari bir ma'noni anglatadi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaga yuzlansak o'zgarishga yaqqol namoyon bo'lamiz O'zbekiston – boshqaruvining Respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning “ O'zbekiston Respublikasi” va “ O'zbekiston” degan nomlari bur ma'noni anglatadi.(2) Yangi tahrirdagi konstitutyamizga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisigaham ba'zi bir o'zgarishlar kiritildi. Avvalgi qomusimizda Senat tarkibida 100 nafar a'zo bo'lgan bolsa yangilanngan qomusimizda bu son 65 nafar a'zo bolishi belgilandi va buni biz 2024 yili Oliy Majlisga o'tkazdirilishi kerak bo'lgan saylovda guvoh bo'lishimiz mumkun. Saylov ta'rtibi har bir viloyatdan, Toshkent shahar hamda Qoraqalpog'iston respublikasidan 4 nafar a'zo jami esa 56 nafar senator saylanadi va qolgan 9 nafarini Prezidentimiz tayinlaydi. Yurtimizda saylov tizimi konstitutsiyamizga binoan aralash tartibga o'tkazdirildi. Misol uchun: Qonunchilik palatasiga saylov aralash usulda ya'ni mojaritar hamda proporsional usulda bo'ladigan bo'ldi. Fuqarolarning erkinliklari qonun bilan himoyalandi, olim jazoasi qa'tiyan qonun bilan bilan qoralandi, aslida o'lim jazosi 2008 yili 1- yanvar sanasida bekor qilingan edi lekin buni konstitutsiyaga kiritildi . Konstitutsiyaga yangi boblar jumladan: Advokatura, Ommaviy axborot vositalari qo'shildi. Shuningdek konstitutsiyada normalar soni oldingisiga qaraganda ancha darajada koproq boldi avvalgisida 275ta normadan iborat bolsa hozirgisi 434 ta normadan iborat.(3) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir- biriga nisbatan o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liqdir. Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak. Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Qabul qilingan konstitutyizamiz fuqarolar uchun juda mazmunli hamda foydali bo'ldi qabul qilinishiga kop vaqt bo'lmasdan. Har bir modda fuqarolar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib yangi tahrirdagi konstitutsiya avvalgisiga qaraganda demokratiya belgilari tolaqonli aks ettirildi.

References:

1. “O'zbekiston tarixi” 11- sinf darsligi (8-9 betlar) G'afur G'ulom nashriyoti 2018.
2. <https://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiya